

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

### O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“Kiritdi”

O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat  
instituti rektori

N.B.Sayfullayev

“01” 06 2024-y

“Kelishildi”

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



“01” 06 2024-y

“Tasdiqlayman”

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi



“01” 06 2024-y

### KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

60211700 – Xalq ijodiyoti: folklor va etnografiya  
ta'lif yo'naliishi uchun

- Yakkaxon qo'shiqchilik, raqs va cholg'u ijrochiligi fanlaridan
- Etnografiya fanidan

Dastur O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil \_\_\_ - \_\_\_ -sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

K.S.Isayev

– O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi mudiri, dotsent

O‘.Toshmatov

– O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi ” kafedrasi professori

N.Abraykulova

– O‘zDSMI “Sahna harakati va jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri, dotsent

**Taqrizchilar:**

R.Abdullayev

– O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasi professori v.b

A.Sunnatillayev

– O‘zMMSI “Doston ijrochiligi” kafedrasi dotsenti

## **Kirish**

60211700 – Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari”ga muvofiq hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlari dasturi asosida o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlari har bir ixtisoslik uchun belgilangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha imtihon o‘tkazilishining ketma-ketligi, har bir Oliy o‘quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o‘rnataladi va har yili qabul qilish qoidalari ko‘rsatiladi.

### **Fanning maqsad va vazifalari**

60211700 – Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni tanlash bo‘yicha o‘tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsadi – abituriyentning yuksak ijodkorlik, ijrochilik mahorati hamda folklor asarlarni to‘g‘ri farqlay olish va ulardan foydalanish ko‘nikmasiga, musiqani tushunish, his qilish qobiliyatiga ega ekanligini aniqlashdan iboratdir.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan ijodiy, amaliy hamda nazariy (etnografiya) nuqtai nazardan topshiradilar.

### **Yakkaxon qo‘sinqchilik, raqs va cholg‘u ijrochiligi fani bo‘yicha**

Yakkaxon qo‘sinqchilik, raqs va cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha kirish imtihonida abituriyent 4 ta folklor hududi (Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg‘ona-Toshkent)ga xos bo‘lgan folklor qo‘sinqlarini talab darajasida (sof kuylash, temp va usulni his qilish, asarga badiiy yondashish, diksiya, hududga xos shevada) ijro qilib beradi. (Abituriyent xohishiga qarab ijro etayotgan asarlardan birini biror milliy cholg‘uda o‘zi chalib ijro qilib berishi ham mumkin). Ijro etayotgan qo‘sing‘ining xarakterini his etishi va ifodalashda qo‘llarning erkinligi, raqs harakatlaridan foydalanib, (Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg‘ona-Toshkent)ga xos bo‘lgan folklor raqlaridan istalgan 2 ta hudud raqsini ijro etishi, kamida bitta an‘anaviy cholg‘u (nay, qo‘sny, chang, qonun, rubob, g‘ijjak, tanbur, dutor, doira va boshqa)da va ko‘hna folklor cholg‘ulari (chanqovuz, sibizg‘a, sopol nay, do‘mbira, karnay, nog‘ora, surnay va boshqa)da o‘z ijro mahoratini ko‘rsatishi lozim.

## Etnografiya fani bo'yicha

Etnografiya fanidan kirish imtihonida abituriyent biletda ko'rsatilgan 2 ta savolga og'zaki javob berishi kerak. Savol-javob keng doiradagi o'zbek xalq etnografiyasining mohiyati, xalqning turmush an'analari haqidagi savollar bo'yicha o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo'yicha abituriyentning fikrashi, bilim doirasi, nutqi, dunyoqarashi tekshiriladi.

Etnografiya faniga qo'yiladigan talabalar:

- folklor va etnografiya sohasini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlarning mazmun mohiyati;

- etnografiya fanining mazmun mohiyati;
- o'zbek xalqining moddiy va nomoddiy madaniyati;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi;
- mavsumiy marosimlar;
- urf-odat, marosim, an'ana, qadriyat tushunchalari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

### Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

– Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg'on-a-Toshkent hududlariga xos bo'lgan folklor qo'shiqlarini talab darajasida (sof kuylash, temp va usulni his qilish, asarga badiiy yondashish, diksiya, hududga xos shevada) ijro qilib beradi. Ijro dasturi o'zbek folklor raqslaridan bo'lishi kerak;

- abituriyent folklor raqs mакtablari xarakatlarining farqi, ularning rang-barangligi, to'g'ri ijro etilishi, mimikani namoyish etish imkoniyatini yarata olishi tavsiya etiladi;
- abituriyent kamida bitta an'anaviy cholg'u (nay, qo'shnay, chang, qonun, rubob, g'ijjak, tanbur, dutor, doyra va boshqa)da va qadimiy folklor cholg'ulari (chanqovuz, sibizg'a, sopol nay, do'mbira, karnay, nog'ora, surnay va boshqa)da o'z ijro mahoratini ko'rsatishi lozim.
- cholg'ularda ijro etiladigan asarlar milliy kuylar yoki hududlarga xos folklor asarlari bo'lishi talab etiladi.

### Etnografiya faniga qo'yiladigan talablar

– O'zbeklarning moddiy madaniyati, an'anaviy hunarmandchilik sohalari, xalq bayram va milliy o'yinlari, oilaviy-maishiy turmush an'analari, o'zi tug'ilib o'sgan hududining urf-odat, marosim va qadriyatlari, milliy taomlari, liboslari haqida berilgan savollarga to'g'ri aniq misollar yordamida javob berishi talab etiladi.

- abituriyent urf-odat, marosimlarning mohiyati, uning maqsadi va mazmuni, o'tkazilish vaqtি va tartibi, ishtirokchilarining vazifasini to'g'ri tahlil etishi lozim.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:**

**Yakkaxon qo'shiqchilik, raqs va cholg'u ijrochiligi fani bo'yicha**

T/r	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko'rinishi, odobi, muomala madaniyati va folklor hududlaridan biriga to'liq mos keladigan libosda kelganligi	5
2.	Ijro dasturlarining barcha talablar asosida, to'liq shakllanganligi (bunda, har bir hududiy uslubga xos bo'lgan 4 ta folklor qo'shiq ijrosi uchun 0-10 balgacha beriladi)	40
3.	4 ta folklor hududi (Surxondaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg'ona-Toshkent)ga xos bo'lgan folklor raqslaridan istalgan 2 ta hudud raqsini ijro etishi (har bir hudud raqsini to'g'ri ijro etgani uchun 0-5 baldan beriladi)	10
4.	Milliy musiqa cholg'ularida postanovkaning to'g'ri qo'yilganligi, ijro madaniyati va ko'nikmalariga rioya qilishi	8
5.	An'anaviy cholg'u (nay, qo'shnay, chang, qonun, rubob, g'ijjak, tanbur, dutor, doira va boshqa)da hamda qadimiy folklor cholg'ulari (chanqovuz, sibizg'a, sopol nay, do'mbira, karnay, nog'ora, surnay va boshqa)da o'z ijro mahoratini ko'rsatishiga	30
<b>Jami:</b>		<b>93</b>

### Etnografiya fani

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	O'zbek xalq etnografiyasining mohiyati, xalqning turmush an'analari haqida nazariy tuzilgan 2 ta savolga og'zaki javob uchun (bunda, har bir savolga berilgan javob uchun 0-25 balgacha)	50
2.	Abituriyentning nutqi	13
<b>Umumiy ball</b>		<b>63</b>

### Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211700 – Xalq ijodiyoti: (folklor va etnografiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda yakka tartibda ijodiy imtihon topshiradilar.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, ijodiy va og'zaki shaklda o'tkaziladi.

## **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat abituriyentning o'z ballari haqida bo'lsagina qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017-yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017-yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017-yil
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
6. Ashirov A.A O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T.: 2007. 276 b.
7. Jo'rayev M, L.Xudoyqulova. Marosimnoma. – T.: 2008. 172 b.
8. Jo'rayev M. Navro'z qo'shiqlari. – T.: 2007. 163 b.
9. Jo'rayev M, O'. Tohirova. Ostonasi tillidan. – T.: 2003. 78.b.
10. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – T.: Fan 2008. 252b.
11. Inoyatov M.O'zbek xalq ijodiyoti an'analari. – T.: 2010. 132b.
12. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. – T.: 2006. 216 b.
13. M.Jo'rayev, O'. Tohirova. Ostonasi tillidan. – T.: 2003. 78.b.
14. M.Asomiddinova Kiyim-kechak nomlari. – T.: Fan, 1981. 116 b.
15. M.Sattorov. O'zbek uduumlari. – T.: Adolat, 2004. 208 b.
16. I.Jabborov. O'zbeklar. – T.: Sharq, 2008. 240b.
17. M.Jo'rayev, L.Xudoyqulova. Marosimnoma. – T.: 2008. 172 b.
18. B.Shodiye. Navro'z bayrami. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. 128 b.
19. M.Jo'rayev. Navro'z qo'shiqlari. – T.: 2007. 163 b.
20. S.Yo'ldosheva, G.Sattorova. Folklor-etnografik ansamblari. Qo'llanma. T.: - 2007. 272 b.
21. O.Xaitova. Xorazm qo'shiq ijrochilik an'analari. O'quv qo'llanma. T.: Cho'lpon, - 2006. 144 b.
22. Qosimov. Folklor musiqa ijrochiligi. O'quv qo'llanma. T.: Talqin, - 2008. 192 b.
23. O. Hayitova. Xorazm qo'shiqchilik san'ati durdonalari. – T. Noshir, 2009.
24. U.Tashmatov. Folklor qo'shiqlari. O'quv qo'llanma. T.: Xalq merosi, - 2003. 136b
25. U.Kurbanova, B.Kudaybergenova, N.Qobilov. Yakkaxon qo'shiqchilik, – T, 2015.
26. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. O. Safarov, O. Atoyev, F. To'rayev. – T. FAN nashriyoti, 2005.
27. O. Matyoqubov. Doston navolari, T. - 2009.
28. Shoda-shoda marvarid. O'zbek xalq qo'shiqlari. T.: Sharq, - 2006. 416 b.
29. Alla qo'shig'i - onalar orzusi. T.: - 2001.
30. O'. Toshmatov. Navro'z taronalari. T. -1998.
31. Bebaho ma'naviy meros. T.: Kamolot, - 1999.
32. Barhayot milliy qadriyatlar. T.: - 1996.
33. M.Jo'rayev. Ramazon qo'shiqlari. Toshkent haqiqati, 1992, 21-aprel.